

## IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATLARIDA KONTSERT NAMOIYISHIGA TAYORGARLIK FAOLIYATI

**Yaxyoyeva Shaxnoza Sharopovna**

**Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro**

**maqom maktab-internati oliy toifali o'qituvchisi**

**Xudoyberdiyev Jahongir Hakimovich**

**Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro**

**maqom maktab-internati oliy toifali o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20137336>**

**Annotatsiya:** Maqolada musiqiy-badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish, xususan, kontsert namoyishi paytida o'zini tuta bilish, hayajonni yo'qotish, kontsert davomida ruhiy-ijodiy ko'tarilish holatini shakllantirish haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqachi-ijrochi, kontsert faoliyati, kontsert namoyi, hissiy hayojon, ijro san'ati, qobiliyat.

**Аннотация:** В статье приведены сведения о развитии музыкально-художественных способностей, в частности, способности вести себя во время концерта, потере азарта, формировании состояния духовного и творческого подъема во время концерта.

**Ключевые слова:** музыкант-исполнитель, концертная деятельность, концертное исполнительство, эмоциональное волнение, исполнительское искусство, талант.

**Annotation:** The article provides information about the development of musical and artistic abilities, in particular, the ability to behave during a concert, the loss of excitement, the formation of a state of spiritual and creative upsurge during a concert.

**Key words:** performing musician, concert activity, concert performance, emotional excitement, performing arts, talent.

**Kirish.** Musiqachi-ijrochining shaxsiyatiga kontsert faoliyati katta ta'sir ko'rsatadi va bizning fikrimizcha, kontsert davomida ruhiy-ijodiy ko'tarilish holatini shakllantirish uchun quyidagi ehtiyojlar eng qimmatlidir: ishtirok etish orqali tovushlar vositasida ifodalanadigan musiqiy go'zalliklar dunyosiga qo'shilish zarurati, amalga oshirish jarayoni, ya'ni ansambldagi sheriklar va jamoatchilik bilan ijodiy muloqot qilish zarurati, o'z musiqiy g'oyasini boshqalarga yetkazish, saqlash istagida o'zini namoyon qilish zarurati.

Kontsert faoliyatining namoyish etilishi - bu hal qiluvchi ijodiy faoliyat bo'lib har bir musiqachining (ham yetuk, ham boshlang'ich) asar ustida uzoq yillik ishining natijasidir. Va, albatta, bularning barchasi o'zaro bog'liq bo'lgan ta'lim va musiqachi bo'lish tizimidagi zarur bosqich hisoblanadi. Ta'lim - bu musiqiy fikrlash, ijodiy tasavvur, eshitish, texnik ko'nikmalar, xotira, ish rejimida kontsentratsiya va umumiy madaniyatdir.

Ko'pincha kontsert bosqichlarida tanaffuslar ro'y beradi, bu hatto iqtidorli ijrochilarga ham jiddiy ruhiy shikast yetkazadi, bu esa ba'zida kontsert faoliyatini namoyish etishda bosh tortishiga ham sabab bo'ladi. Ijrochi bilan sahnada sodir bo'lgan tanaffuslarning sabablarini ko'rib chiqib, hayajon muammosi - "omma oldida" ichki ozodlik muammosi, o'zini asabiy taranglikdan ozod qilish qobiliyati haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

**Asosiy qism.** Musiqiy asar ustida ishlashning eng yuqori bosqichi - bu ijrochining kontsert va sahna chiqishidir. Uzoq va mashaqqatli mehnat natijalarini omma oldida taqdim etish o'z-o'zidan javobgarlik hisini shakllanishidir. Ikkinchi tomondan qaraganda, bu jarayon

tinglovchiga yoqqan asarni ko'rsatish, o'z hissiy hayajonini badiiy ijod bilan yetkazish imkoniyati hamdir. Shuningdek, ijrochi uchun bu jarayon asarning kontseptsiyasi va mazmun-mohiyatini puxta egallab olish, tasvirlab berish, tovushlar vositasida ifodalanadigan har bir detalini his qilishi va tushunishi hamdir. Jamoaviy ijro bo'ladimi yoki yakka ijro sharoiti bo'ladimi ta'lim jarayoniga bo'lgan mas'uliyat ortadi.

O'qituvchining kuchli nazorati ostida o'tadigan butun tarbiya jarayoniga qaramay, imtihon topshirish yoki kontsert faoliyati asosan musiqachining individual qobiliyatiga bog'liq. Sahnada o'zini tutish, ijro paytida majburiyatni his qilish, tomoshabinlarning munosabatiga munosabat - bularning barchasi har bir ijrochida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Konsert dasturiga tayyorgarlik jarayoni, birinchi navbata, asar ustida ishlash faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shunga binoan konsert dasturiga tayyorgarlik usuli-musiqachi-o'qituvchilarning diqqat markazida turuvchi bosqichlarning eng asosiysi hisoblanadi.

Ma'lumki, kontsertda o'z mahoratini namoyish etish bitta har bir namoyish davomida ruhiy energiyaning tez, maksimal kontsentratsiyasini, aqliy, jismoniy va intellektual resurslarni maxsus safarbar qilish va qat'iy ichki tartib bilan musiqa asarini omma oldida ijro etish paytida hissiy va jismoniy chidamlilikni talab qiladi.

Konsert dasturiga tayyorgarlik musuqa asarini tanlashdan boshlanadi. Albatta, talabaning ta'lim repertuarini tuzishda o'qituvchi dastur talablarini, o'z o'quvchisining kasbiy fazilatlarini rivojlantirishning yaqin, eng dolzarb vazifalarini, uning xohish -istaklarini inobatga oladi. Talaba ijro etish uchun tanlangan asarlarni yoqtirishi, uning eng yaxshi shaxsiy fazilatlarini asarlar ijrosi davomida yaqqol namoyon bo'lishi uchun ularni o'zlashtirish istagini uyg'otishi maqsadga muvofiqdir. Bu asarlarning texnik va badiiy murakkablik darajasi uning rivojlanish bosqichida talabaning ijro qobiliyatidan oshmasligi kerak, lekin shu bilan birga, agar uning asarlari bosqichma-bosqich o'sib borayotganini ko'rsatish mumkin bo'lsa, foydali bo'ladi. Aynan shunday asarlar ijrochiga mashg'ulotning istalgan bosqichida dasturning badiiy va texnik tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan improvizatsiya erkinligini eshitishga imkon beradi. Bunday improvizatsiya erkinligi ijrochiga sahnada o'z mahoratini namoyish qilish, o'z faoliyatidan zavqlanishga olib keladi. Musiqiy asarning omma qarshisida ijrosi nafaqat talabaning shaxsiy iste'dodini, iqtidorini, balki, birinchi navbatda, kasbiy mustaqillik darajasini ko'rsatadi. Shu sababli, kontsertga tayyorgarlik paytida va musiqiy asarning omma qarshisida ijrosi jarayonida talaba o'zini tartibga solishi, o'zini nazorat qilishi va kontsertdan so'ng uning ijrosiga mustaqil baho berishi juda muhim.

Konsert namayonishining eng muhim qismlari: yakuniy repetitsiya, chiqish kunidagi xatti-harakatlar, sahnaga chiqish va uni tark etish, kontserning boshlanishi. Ular bilan bog'liq ba'zi ko'rsatmalarga e'tibor qarataylik:

*Yakuniy mashq* xonaning o'zi va uning akustikasi bilan tanishish maqsadida kontsert o'tkaziladigan xonada o'tkaziladi. Ijrochining mas'uliyatini oshirish uchun auditoriyani ushbu mashg'ulotga (boshqa o'qituvchilar, sinf o'quvchilari, do'stlar) taklif qilish juda foydali. Yakuniy repetitsiya kontsertda ijro etiladigan asarlar ketma-ketligi tartibida bir martalik, eng mas'uliyatli tarzda bajarilishini nazarda tutadi. Yakuniy repetitsiyadan oldin dastlabki mashg'ulotlarni o'tkazish kerak. Bunday mashg'ulotlar uyda ham, boshqa xonada ham o'tkazilishi va butun dasturni to'liq takrorlash mumkin. *Konsert kuni* aksariyat ijrochilarda "konsert oldidan hayajon" mavjud bo'adi. Hayajonning intensivligi to'g'ridan-to'g'ri ijro sifatiga bog'liq emas: hatto juda kuchli hayajon bilan ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu

borada mutaxassisilar: “hayajon bo'lmasa, siz bo'shashib, yomon ijro etasiz”, degan fikrni bildiradilar. Sahnaga chiqish(dasturni yakuniy namoyishi) kundagi xatti-harakatlar, ko'rsatmalar, talablar bir xilda bo'lishiga erishish kerak. Biroz mashq tavsiya etiladi va asarlar sekin sur'atda, hissiy jihatdan cheklangan holatda mashq qilinishi kerak. Agar kontsertdan oldin asarlarini mashq qilish istagi paydo bo'lsa, unda, dastlab sekin-asta sur'atda etyudlar, gammalar yoki kontsert asarlari parchalari, alohida epizodlarini mashq qilish mumkin. Asarnihg turli epizodlarini cholg'u asbobsiz, xotiraga tayangan holda xayoldan o'tkazish foydalidir.

Musiqiy-badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish, xususan, kontsert namoyishi paytida o'zini tuta bilish, hayajonni yo'qotish, musiqachi-ijrochini shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Chunki hamma ijrochi ham har doim ham kerakli natijaga erisha olmaydi, chunki ko'pchilik uchun hayajon og'riqli holatga yetadi. Ko'pincha, tashvish-vahima ijroda turli buzilishlar sodir etilishiga sabab bo'ldi va bu tabiiyki, ijrochining ruhiy shikastlanishiga olib keladi. Bu holatni mutaxassislar "bosqichli kasallik", deb ataydilar. Har bir ijrochi kontsert jarayonida hayajonlanishning sabablarini bilishi va ular bilan kurasha olishi kerak. Kontsertda chiqishidan qo'rqishning bir qancha sabablari bor, ularga misol: noodatiy muhit, texnik jihozlarning yetishmasligi, repertuarning to'g'ri tanlanmaganligi, o'z qobiliyatiga ishonmaslik, o'qituvchi va boshqalar tomonidan talabaga noto'g'ri ruhiy ta'sir ko'rsatilishi.

Kontsert oldidan kerakli ritmga moslashtirish, tinglovchiga eng yaxshi narsalarni yetkaza olish masalalari, sahnada hayajonni yengish mexanizmlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy va ijrochilik tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Talabaning imtihonlarda, kontsertlarda, kasbiy-pedagogik amaliyoti davrida musiqa asari ustida olib boradigan barcha ishlari omma oldida chiqish sharoitida "kuch sinovidan" o'tadi, bu materialni o'zlashtirish darajasini, ijrochining iqtidor darajasi va uning psixologik barqarorligini belgilaydi. Iqtidorli talaba omma oldida chiqish qilish paytida, eng kuchli hayajon tufayli uning sahnada muvaffaqiyatsizlikka uchrash holatlari bo'lishi mumkin. Juda yorqin iqtidorli bo'lmagan, lekin ishlashga psixologik jihatdan chidamli talaba o'zini yaxshi ko'rsataish holatlari ham bo'ladi. Ijrochi tabiatining turli xususiyatlari, irodasi, aql-zakovati, his-tuyg'ularining teranligi, ijodiy tasavvur - bularning barchasi u yoki bu darajada kontsert paytida namoyon bo'ladi.

**Muhokoma va natijalar.** Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining sahna hayajonini yengish bo'yicha ishlar oliy ta'limda o'qishning birinchi kunlaridan boshlab amalga oshirilishi kerak. Nuqtai nazar shundaki, talabalarning o'qishni birinchi yilidanoq kontsert dasturi bilan tez-tez va muvaffaqiyatli chiqishi, kelajakda ko'proq kasbiy va psixologik barqarorlikka ega bo'lishida va sahna hayajonini yengishiga osonroq bo'ladi

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, professional ijrochilar omma oldida chiqish qilishning belgilaydigan tashqi va ichki sharoitlar yig'indisini o'rganishga juda jiddiy yondashadilar. Xuddi shu yondashuv birinchi kursdan boshlab, talabalar bilan mos ravishda ishlashda shakllantirilishi kerak.

Yana bir xususiyatni unutmaslik kerak. O'qituvchilar talabaga uyda yoki darsda "aqliy quvvatda emas", xuddi mashq qilayotgandek, dars berayotgandek chalishga ruxsat beradilar. Asarni o'rganish bosqichini istisno qilmaslik kerak, lekin musiqa asari mashq yoki mashg'ulotga aylanib ketmasligi uchun uni dars oxirida, xuddi kontsertda, xayoliy tinglovchilar huzurida bo'lgani kabi o'z tempida ijro etish talab qilinadi.

Texnik tayyorgarlikdagi kamchiliklar ijro sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar kontsertdan oldin mushaklarda haddan tashqari zo'riqish bo'lsa, u holda hayajonlanishdan u

ko'p marotaba oshadi, butun tananing mushaklarining qattiqligi namoyon bo'ladi, qo'llar titray boshlaydi va ijrochiga yomon bo'ysunadi. Qaerda stress holati paydo bo'lsa va uning ta'siri qaerdan kelib chiqsa, u ijrochining qo'l erkinligiga har doim to'sqinlik qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik san'atkorlarning aytishicha, agar ijrochi kontsertdan oldin xavotirlanmagan bo'lsa, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, kontsert muvaffaqiyatsiz bo'lgan.

Kontsertdan so'ng ijroning ijobiy tomonlarini qayd etish, talabani qo'llab-quvvatlash zarur. Ayniqsa, o'smirlar haqida gap ketganda - ularning hissiy holati beqaror va barcha reaksiyalar kuchayadi. Yaxshisi, kontsertdan so'ng darhol emas, balki keyingi kunlarda omad uchun maqtash, kamchiliklarni tuzatish yo'llarini belgilab berish mumkin. Ijrodagi ijobiy daqiqalarni qayd etib, talabani sahnada o'zini erkinroq tutishga, uning badiiy ijodini rivojlantirishga hissa qo'shish mumkin. Bo'lajak musiqachiga vaqtinchalik to'siqlarni yengishga o'rgatish kerak.

Kontsertga chiqishga tayyorgarlik jarayonida asosiy narsa - o'ziga ishonch va xotirjamlik qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. "Kontsert oldidan umumiy rejim haqida gapirganda, aytish mumkinki, u ijrochining hayoti va ijodidan keskin farq qilmasligi kerak. Yolg'iz qolish va dastur haqida xotirjamlik bilan o'ylash yaxshidir, chunki bo'sh suhbat zararli.

Sahnada ishonch qozonish-musiqachining uzoq yillik ijodi. Ammo tez-tez mas'uliyatni his qilish natijasida sahnada muvaffaqiyatsizliklar ro'y beradi. Musiqiy obrazning timsoliga to'liq bag'ishlanish, kashfiyot jarayoni, asardagi go'zallikning namoyishi, har bir detalga g'amxo'rlik va chanqoqlik uni haqiqiy ovozda jonlantirish - bu sahnadagi qo'rquvni engishning yo'li.

Sahna hayajonining sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Haddan tashqari murakkab dastur.
2. Matnni unutib qo'yishdan qo'rqish.
3. Psixologik o'zini o'zi boshqarishning past darajasi.
4. Haddan tashqari mas'uliyat hissi.

Birinchi sababni bartaraf etish uchun o'qituvchi repertuar tanlashga yanada mas'uliyatli va sifatli yondashishi, shuningdek, har bir talabaga individual yondashuvni topa bilishi kerak.

Matnni unutib qo'yish qo'rquvi tufayli tashvishlanishni bartaraf etish uchun polshalik pianinochi I. Xoffman tomonidan taklif qilingan matnni yodlash usulidan foydalanish mumkin. Uning metodikasi asarni avvalo notalardan, so'ngra ularga qaramasdan, aqliy, tovushsiz "ijro etish"dan iborat. Barmoqlar xayoliy kechinmalarda pardalarni bosadi, qo'l va tananing mushaklari bajarish jarayoni uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi, lekin musiqa faqat o'quvchining tasvirlarida yangraydi.

Psixologik o'zini o'zi boshqarish darajasini oshirish uchun sahnada talabani ijodiy farovonligini yaratish kerak.

Faqat tizimli mashqlar orqali diqqat-e'tiborni sahnaga qafratishni o'rganish mumkin. Ob'ektni shunday "ushlab olishga" yordam beradigan maxsus texnikani ishlab chiqish kerak, shunda sahnadagi ob'ektning o'zi bizni undan tashqaridagi narsadan chalg'itadi.

Shu bilan birga, talaba kontsertga chiqishdan oldingi vaqtga katta e'tibor berishi kerak. O'qituvchi va talabani e'tibor ob'ekti kontsert arafasida rejim bo'lishi kerak

**Xulosa.** Ko'pgina talabalar uchun kontsertda chiqish oson emas. Sahnadan qo'rqqan va odatda o'z darajasidan ancha past bo'lgan tomoshabinlar oldida chiqish qilgan, bo'lgan. Manbalarda yozishicha, kontsert oldidagi hayajon ko'pchilik zo'r virtuozlar, buyuk kompozitorlarga ham xos bo'lgan. Bu qoidadan kamdan-kam istisno sifatida ular kontsertdan

oldin umuman tashvishlanmagan. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijrochini kontsertga tayyorlash bosqichining mohiyatini, uning xususiyatlarini, sahna hayajonini yengishning asosiy usullari va texnikasining xususiyatlarini ochib berish maqsadida har bir amaliy ishga alohida e'tibor qaratish, ijodiy faoliyatning puxta ta'minlanishiga jiddiy yondashish kerak.

Shunday qilib, sahna hayajonini yengish tomoshabinlar bilan muloqot qilish uchun ijodiy istak yo'lidan borishi kerak. Bu bajaruvchi talabning barcha tayyorgarlik ishlarining haqiqiy va doimiy ma'nosini o'zida mujassam etgan muloqotdir. Musiqiy obraz timsoliga to'liq bag'ishlanish, ijroda go'zallikni kashf etishning uzluksiz, dialektik jarayonning barchasi haqiqiy ovozda ochib berishga bo'lgan tashnalik bo'lib - bu bo'lajak musiqa o'qituvchisini ommaviy chiqishda sahna hayajonini yengish yo'lidir.

Rus teatr rejissyori, aktyor va o'qituvchi, nazariyotchi va teatr islohotchis K. Stanislavskiy nozik psixologik kuzatuv bilan aktyorning sahnada boshdan kechirgan og'riqli va g'ayritabiiy holatini tasvirlaydi: "Biror kishi - san'atkor odamlar oldida sahnaga chiqqanda, qo'rquvdan, uyatchanlikdan, mas'uliyatdan o'zini yo'qotadi, ruhiy qiyinchiliklarni sezadi. Bu daqiqalarda u gapira olmaydi, ko'ra olmaydi, tinglay olmaydi, o'ylay olmaydi, xohlamaydi, his qila olmaydi ". Bunday holatlar musiqachilar faoliyatida ham sodir bo'ladi, albatta. Ya'ni, musiqachi-ijrochining hayajoni aktyorning tasvirlangan hissiyotidan farq qilmaydi, javobgarlik ongi, notanish muhit, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi - bularning hammasi ijodiy qobiliyatni tartibsizlikka uchrashiga sabab bo'ladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: Darslik, I,II,- kitob. T., 2002.
2. Bahriyev A.R. Oquvchilarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2019, 10(83) B. 39-45
3. Bahriyev A.R. Musiqiy faoliyatlar psixologiyasi (tinglash faoliyati misolida). -T.: "Fan", 2010. -128-b.
4. Ro'ziyev D.Yu. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.
5. Ro'ziyev D.Yu. Orkestrda ijro etishning ayrim pedagogic va psixologik omillari. "Psixologiya" 2-son, 2020. 95-102-b.